

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TO'LAYEV SAFARMUROD BOYMUHAMMAD O'G'LI

**KORPORATIV MIJOZLARGA KO'RSATILADIGAN INNOVATSION
BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

UDK: 336.713:336.76:330.322(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

To‘layev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li Korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish.....	3
Тулаев Сафармурод Боймухаммад угли Улучшение инновационных банковских услуг, предоставляемых корпоративным клиентам	29
To’laev Safarmurod Boymuhammad ugli Improving innovative banking services provided to corporate clients.....	55
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TO'LAYEV SAFARMUROD BOYMUHAMMAD O'G'LI

**KORPORATIV MIJOZLARGA KO'RSATILADIGAN INNOVATSION
BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi
Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4135-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rustamov Maqsud Suvonqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Oblamuradov Narzulla Naimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «_____» soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34. kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» kuni tarqatildi.
(2024 yil «_____» dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.N. Qo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida banklarning korporativ mijozlarga ko'rsatayotgan innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, korporativ mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish tizimining rivojlanishining asosiy jihatni iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Ushbu jarayonda banklar korporativ mijozlarga turli xil yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etadilar. Dunyoning turli hududlarida faoliyat olib borayotgan yetakchi tijorat banklaridan biri JPMorgan Chase & Co "35 trillion dollardan ortiq aktivlarga ega bo'lib, 2024-yilda butun dunyo bo'ylab iste'molchi va institutsional mijozlari uchun 2,8 trillion dollar miqdorida kredit ajratganligi katta natijadir. Bank har kuni 120 dan ortiq valyutada va 160 dan ortiq mamlakatlarda korporativ mijozlarning 10 trillion dollardan ortiq mablag'ni o'tkazib berib dunyo bo'ylab tovarlarni sotilishi va xizmatlarni o'z vaqtida ko'rsatilishiga hissa qo'shib kelmoqda"¹. Har qanday iqtisodiy sharoitda ham korporativ mijozlar uchun amalga oshiriladigan xizmatlar bankka barqaror va o'sib boruvchi daromadni ta'minlashi mumkinligi, bank tizimi va davlat uchun ushbu tarmoqni rivojlanishining muhimligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida banklar va xalqaro tashkilotlar, soha yetakchi olimlari tomonidan ham, tijorat banklari korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarining rivojlanish evolyusiyasi, amaldagi holati, tashkil etishdagi muammolar, ularni bartaraf etish va bank xizmatlarining samaradorligini oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa xalqaro amaliyotdagi tadqiqotlarda korporativ mijozlarga taqdim etilayotgan bank mahsulot va xizmatlari turini ko'paytirish, sifatini oshirish, realizatsiyasini optimallashtirish, unga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri baholash va tijorat banklarining korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan mahsulot va xizmatlar bo'yicha rentabelligini oshirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, tijorat banklari o'zlarining ushbu sohani rivojlantirishdagi strategiya va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, bank korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarini yetkazib berishni optimallashtirish, innovatsion xizmatlar tizimini tashkil etish, xizmatlarni standartlashtirish, raqamli bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish kabi masalalar ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralishi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunga kelib, tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan bank innovatsion mahsulot va xizmatlari tubdan isloh qilindi xususan oldingi yillarga nisbatan ushbu bank xizmatlari bozori rivojlandi, universal bank xizmatlarini taqdim etish borasidagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Ammo, shunga qaramasdan bank xizmatlarini takomillashtirish va ularni amalga oshirish amaliyotida ba'zi muammolar saqlanib qolmoqda. Bunday muammolar qatoriga: kredit olish uchun berilgan arizalarni ko'rib chiqish va kreditlarni ajratishda tezkor qaror qabul qilishning cheklanganligi, korporativ mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishda zamonaviy yondashuvlar mavjud emasligi, to'lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va

¹ <https://www.jpmorganchase.com/ir/annual-report/2024/ar-ceo-letters>

ishonchlilik darajasining rivojlangan davlatlarga nisbatan pastligi va boshqalarda ko‘rishimiz mumkin. Respublikamiz tijorat banklariga «Bank faoliyatining ilg‘or xalqaro tajribasini o‘rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish, naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ilgari surish»² vazifasi belgilangan. Bu o‘z navbatida mavzuning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida hamda boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib bank korporativ mijozlariga xizmat ko‘rsatishning xorij tajribasini, mahalliy banklar xizmatlariga bo‘lgan talabni o‘rgangan holda, sohadagi mavjud muammolarni o‘rganish va ularni zamon talablaridan kelib chiqib yechimlarini izlash hamda innovatsion xizmatlarni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Tadqiqot ishida mavzu yuzasidan qator ilmiy adabiyotlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganib chiqildi.

Banklarda korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari holati va ba’zi muammolarini nazariy tadqiq etishning asosiy masalalari xorij olimlaridan Yu.Korchagin, I.Lavrushin, Yu.Yushko, G.Beloglazova, A.Tavasieva, S.Galiskaya, A.Ivanov, P.Rouz, Dj.Sinki, V.Xabarov, N.Popova³ kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Ushbu sohada mavjud muammolarning ilmiy amaliy jihatlari mahalliy

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 мартағи ПҚ-3620 сонли «Банк хизматлари оммаболлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори.

³ Ю.А.Корчагин «Деньги, кредит, банки» М: «Феникс» 2006 г 312 с; И.О.Лаврушин «Банковское дело:розничный бизнес» М: «Кнорус» 2010 г. 762 с; Джозеф Синки «Финансовый менеджмент в каммерческом банке и в индустрии финансовых услуг» М: Альпина Паблишер 2019 г. 1018 с; Питер С Роуз «Банковский менеджмент» М: Дело 1997 г. 762 с; А.Н.Иванов «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт» Москва «Ф и С» 2002 г. 176 с; С.В.Галицкая «Деньги, кредит, банки». Полный курс. Москва изд. «Эксмо» 2008 г 336 с.; А.М.Тавасиева «Дополнительные операции для клиентов» Москва «Ф и С» 2005 г. 416 с; Г.Н.Белоглазовой, Л.П.Крошевецкой «Банковское дело» Учебник для вузов 2-е издание П: 2008 г 400 с; Корпоративные финансы: теория, методы и модели управления: учеб-метод. пособие / Ю.И.Юшко. - Минск: «ФУАИнформ», 2006. - 575 с.; В.И.Хабаров, Н.Ю.Попова «Банковский маркетинг» Московская финансово-промышленная академия 2005 г 15-23 с.; Ш.З.Закиров. Развитие рынка банковских розничных услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сам. гос. эконом., ун-т - Самара, 2008. - 185 с.,

iqtisodchilardan Sh.Abdullaeva, T.Qoraliev, A.Omonov, F.Mirzaev, O.Alikoriev, D.Raxmonov, E.Xoshimov, Z.Mamadiyarov, O.Ortiqov, I.Kulliev, K.Navro‘zovalar⁴ tomonidan tadqiq etilgan. Ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan bank xizmatlariga doir mavzu o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan bank korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlari alohida mavzu sifatida chuqur o‘rganilmagan.

Ushbu mavzu bo‘yicha to‘liq kompleks ilmiy tadqiqot va tahvilning mavjud emasligi dissertatsiya mavzusini ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida tanlash, uning maqsad va vazifalarini qo‘yish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga taqdim etilayotgan bank xizmatlari amaliyotining hozirgi holatini tadqiq etish va uni takomillashtirishga oid taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

korporativ mijozlar tushunchasi, turlari va tasnifi hamda bank xizmatlari bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish;

tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirish yo‘llarini tadqiq etish;

korporativ mijozlar uchun yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini yaratishda innovatsion kompleks yondashuvlar;

tijorat banklarida korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatish tartib tamoyillarini ochib berish;

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatish faoliyatini tahlil qilib tegishli xulosalar shakllantirish;

korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlarini ilmiy asoslab berish;

mamlakatimizda korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish va uni ilmiy izohlash.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari, xususan, ATB «Turon bank»ning korporativ mijozlarga ko‘rsatayotgan xizmatlari amaliyoti hisoblanadi.

⁴Ш.З.Абдуллаева Банк иши. Дарслик. Т: «IQTISOD-MOLIYA», 2021 й. 535-540 б.; А.А Омонов., М.Т. Қоралиев Банкларда бухгалтерия ҳисоби Т. «IQTISOD-MOLIYA», 2014 й 118 б; Ф.И.Мирзаев Банклараро ракобат: моҳияти, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари Монография Т: «MOLIYA», 2008 й. 68-87; О.Аликориев Тижорат банкларида молиявий хизмат турларини ривожлан-тириш йўналишлари мавзусидаги диссертация. Тошкент 2011 й. 55- 56 б.; Д.А.Рахмонов, Э.А.Хошимов, Э.Д.Алимардонов, Г.А.Бекмуродова, З.Т. Мамадияров Молиявий глобаллашув шароитида масофавий банк хизматларининг ривожланиши: назария ва амалиёт. Монография. Т.: «IQTISODIYOT», 2018 й., 49-60 б; О.А.Ортиков, И.Я.Куллиев Банк менежменти ва маркетинги Ўқув кўлланма Т: «IQTISOD-MOLIYA», 2017 й. 100-117 б.; К.Н.Наврӯзова, О.А.Ортиков Нақд пулсиз ҳисоб китоблар ва тўлов тизими Т: «Чўлпон», 2014 й

Tadqiqotning predmeti. Tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga bank xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlash, umumlashtirish, taqqoslash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida moliyaviy jihatdan yirik mijozlarga “Korporativ silver”, “Korporativ gold” va “Korporativ platinum” kabi yangi innovatsion bank mahsulotlarini ko‘rsatish orqali bank daromadlarini 3-5 foizgacha oshirish taklifi etilgan;

korporativ mijozlarga “Buy-back” bank xizmatini ko‘rsatish orqali muammoli kredit (NPL) hajmini 5-10 foizgacha qisqartirish imkoniyati asoslangan;

korporativ mijozlar uchun “Bill-discounting” bank maxsulotini ishlab chiqish orqali bank xizmatlari sifati 10 foizga oshirish taklif etilgan;

bank korporativ mijozlarining noto‘lovliklar muammosini elektron to‘lov talabnomalarini shakllantirish va kreditorlariga qo‘yish orqali 5-8 foizgacha kamaytirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini rivojlanishi va huquqiy asoslari shakllanish bosqichlari tadqiq etilib, har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

tijorat banklarda korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni standartlashtirish va avtomatlashtirish bank mijozlari ko‘lамини kengaytirishga xizmat qilishi isbotlandi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari, ularni takomillashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini o‘rganish, sohadagi xorijiy davlatlar, xorijiy kompaniyalar tadqiqotlarini o‘rganish va umumlashtirish, ekspert baholash natijalari, O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari ma’lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalarni Respublika tijorat banklari faoliyatida yangi turdagি bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublikamizda korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari amaliyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuuni ishlab chiqish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3620-sonli Qarorida hamda «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-5992-sonli Farmonida amalga oshirilayotgan

islohotlar doirasida tijorat banklariga ilg‘or xalqaro tajribasini o‘rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish, qulay to‘lov xizmatlarini yaratish va rivojlantirish, naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ilgari surish, bank xizmatlari ommabopligrini oshirishda aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmaydigan qatlarning bazaviy bank xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirish kabi belgilangan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarida moliyaviy jihatdan yirik mijozlarga “Korporativ silver”, “tijorat banklarida moliyaviy jihatdan yirik mijozlarga “Korporativ silver”, “Korporativ gold” va “Korporativ platinum” kabi yangi innovatsion bank mahsulotlarini ko‘rsatish orqali bank daromadlarini 3-5 foizgacha oshirish taklifi ATB “Turon bank”ning 2023-2027 yillarda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olingan (“Turon bank” aksiyadorlik tijorat bank 2024-yil 24-sentabrdagi №21/02-256-son ma’lumotnoma). Natijada bankning korporativ mijozlarga ko‘rsatadigan xizmatlari soni ortishiga va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga imkon bergen. Shuningdek, 2023-yil birinchi 6 oyligida korporativ mijozlari soni 315 tani (8286,76 mln. so‘m) tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil birinchi 6 oyligida 416 tani (8286,76 mln. so‘m) tashkil etgan;

korporativ mijozlarga “Buy-back” bank xizmatini ko‘rsatish orqali muammoli kredit (NPL) hajmini 5-10 foizgacha qisqartirish taklifi ATB “Turon bank”ning 2023-2027 yillarda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olingan (“Turon bank” aksiyadorlik tijorat bank 2024-yil 24-sentabrdagi №21/02-256-son ma’lumotnoma). Natijada, korporativ mijozlar tomonidan ishlab chiqarilgan transport vositalarini sotish rag‘batlantirilib ularning daromadini ortishiga va mijozlar uchun transport vositalarini hech qanday muammolarsiz sotib olish imkoniyatini yaratgan;

korporativ mijozlar uchun “Bill-discounting” bank maxsulotini ishlab chiqish orqali bank xizmatlari sifati 10 foizga oshirish taklifi ATB “Turon bank”ning 2023-2027 yillarda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olingan (“Turon bank” aksiyadorlik tijorat bank 2024-yil 24-sentabrdagi №21/02-256-son ma’lumotnoma). Natijada barcha korporativ mijozlar uchun pul aylanmasini oshirishga hamda debitorlik qarzini vaqtida bartaraf etishga olib keldi. Korporativ mijozlarni 2024-yil 8 oylik yakuniy pul aylanmasi natijadorligi 15855,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan;

bank korporativ mijozlarining noto‘lovliklar muammosini elektron to‘lov talabnomalarini shakllantirish va kreditorlariga qo‘yish orqali 5-8 foizgacha kamaytirish taklifi ATB “Turon bank”ning 2023-2027 yillarda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olingan (“Turon bank” aksiyadorlik tijorat bank 2024-yil 24-sentabrdagi №21/02-256-son ma’lumotnoma). Natijada, bankning korporativ mijozlari soni ortishiga va ularning vaqtalarini unumli

foydanishiga ham shu bilan birga o‘zaro noto‘lovliklar muammolarini kamaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji, ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarining iqtisodiy mohiyati hamda nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida, korporativ mijozlar tushunchasi, turlari va tasnifi hamda bank xizmatlari bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlar, tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirish yo‘llari, korporativ mijozlar uchun yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini yaratishda innovatsion kompleks yondashuvlar yoritib berilgan.

Hozirgi vaqtida korporativ mijozlarni jalb qilishda innovatsiyalar bank xizmatlarining sezilarli darajada rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bank xizmatlaridagi raqamli texnologiyalar banklarga korporativ mijozlarning katta guruhlari uchun bir vaqtning o‘zida noyob bank yangiliklarini yaratishga imkon beradi. Yuqori darajadagi xizmatga erishgan taqdirda, korporativ mijoz o‘z tanlovini ma’lum bir bankka berishi va uning doimiy mijozni bo‘lishi mumkin. Bu bankka ham, korporativ mijozga ham bir qator afzalliklarni beradi. Bank xizmatlarini sotish tizimini yaratish xizmatlar bozori va kapital imkoniyatlari, milliy iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalar va mijozlarning potentsial ehtiyojlari bo‘yicha nazariy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Shuningdek, korporativ mijozlarga bank xizmatlari ko‘rsatish tizimining rivojlanishining asosiy jihatni iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Ushbu jarayonda banklar korporativ mijozlarga turli xil yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etadilar. Korporativ mijozlar uchun yangi bank xizmatlarini yaratish keng qamrovli va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Jahon banki tajribasini va bank xizmatlarini rivojlantirishni o‘rganishda mahalliy va xorijiy olimlar xalqaro va

mahalliy bank amaliyotida qo'llaniladigan asosiy atamalar va tushunchalarni aniqlashga katta e'tibor berishadi.

Jumladan, N.Korsunovaning ta'kidlashicha "bank va uning korporativ mijozlari iqtisodiy munosabatlarning mustaqil subyektlari bo'lib, ularning har biri ma'lum bir qator muammolarga duch keladi. Bir tomonidan, bank o'z faoliyatida firibgarlik, vijdonsiz mijozlar, pul yo'qotish, yuqori raqobat, qarz oluvchi tomonidan olingan kredit majburiyatlarini bajarmaslik xavfi kabi muammolarga duch keladi. Bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni aniqlash bankning korporativ mijozlariga samarali xizmat ko'rsatishni tashkil etish uchun katta ahamiyatga ega"⁵.

Hozirgi kunda iste'molchilar o'zlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan bank xizmatlari sifatiga yuqori talablar qo'ymoqdalar va agar ular o'z xohish-istiklarining bajarilishini odatdagidek qabul qilsalar va bunga katta ahamiyat bermasalar, unda kamchiliklar, aksincha, salbiy reaktsiyaga olib keladi. Korporativ mijozlar bilan o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyati bankning ushbu muammolarni qay darajada sifatli hal qilishi yoki ularning afzalliklari orqali ularni yumshatishi bilan belgilanadi.

1-jadval

Korporativ mijozlar uchun yangi bank xizmatlarini yaratish yuzasidan innovatsion kompleks yondashuvlar⁶

Yangi bank xizmatlarini yaratish yondashuvlar	Tarkibiy tuzilishi
Mijozlarning ehtiyojlarini o'rganish	mavjud va potentsial mijozlar bilan ularning ehtiyojlarni aniqlash uchun so'rovlarnomalar o'tkazish hamda mijozlarning xatti-harakatlari, operatsiyalari va afzalliklari to'g'risida mavjud ma'lumotlarni aniqlash.
Raqobatbardoshlikni tahlil qilish	raqobatchilar xizmatlarini, ularning kuchli va zaif tomonlarini hamda bank sohasidagi joriy tendentsiyalarni aniqlash va texnologiyaning moliyaga ta'sirini (masalan, FinTech) tahlil qilish.
Benchmarking usuli	Yangi g'oyalarni doimiy ravishda izlash va keyinchalik ulardan amalda foydalanish amalga oshiriladi. Ushbu usulni qo'llash jarayonida sizning bankingizning ish ko'rsatkichlarini raqobatchilar bilan taqqoslash, shuningdek korporativ mijozlar uchun yangi bank xizmatlarini yaratish g'oyalaring eng yaxshi tajribasini o'rganish amalga oshiriladi.
Texnologiyalarni joriy etish	mijozlar ehtiyojlarini bashorat qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va tranzaktsiyalar xavfsizligi va shaffofligini oshirish uchun blockchain texnologiyalaridan foydalanishni o'rganish.
Bank kredit xizmatlarini boshqarishdan bank biznesiga qadar umumiy optimallashtirish	Korporativ mijozlar uchun yangi bank xizmatlarini yaratish, ularning rivojlanishini birlashtirish orqali biznes g'oyalarini qisman optimallashtirishni o'z ichiga oladi, bank bozoriga joriy etish va banklar uchun rivojlanish. To'g'ri qurilish bilan tahlil qilingan parametrлarning obyektivligi qayd etiladi

Mijozlarga "korporativ" maqomini beradigan asosiy mezonlar quyidagilardan iborat: bankka mijozga xizmat ko'rsatish orqali olinadigan foyda miqdori; bank xizmatlarining eng katta ro'yxatini iste'mol qilish va ularning hajmi; mijozning kredit xavfi ostida bo'lgan faol operatsiyalar bo'yicha majburiyatlarini hajmi; o'tgan hisob-kitob yili uchun korxona xizmatlarini sotishdan tushgan tushum hajmi, shu jumladan eksportdan; mijozning hisobvaraqlaridagi o'rtacha kunlik qoldiqlar miqdori.

⁵ Корсунова Н.Н. Банковское обслуживание корпоративных клиентов на современном этапе // Международный студенческий научный вестник. – 2018. – № 5.

⁶ Muallif ishlanmasi

M. Nazarovning fikriga ko‘ra “tijorat banklarining korporativ mijozlari o‘z bizneslarini yuritish uchun bank xizmatlaridan foydalananadigan yuridik shaxslardir. Ushbu mijozlar turli xil tashkilotlar, shu jumladan kichik va o‘rta biznes korxonalari, yirik korporatsiyalar, davlat idoralari va notijorat tashkilotlari bo‘lishi mumkin”⁷.

Bugungi kunda bank amaliyotida korporativ mijozlarni saqlab qolish (jalb qilish) va foyda olish maqsadida bank xizmatlari va mahsulotlarining rivojlanishiga oid bir nechta tendensiyalar kuzatilmoqda. Ularga quyidagilar kiradi: retail konsepsiysi (barcha bank xizmatlari biror maqsadli mijozni ommaviy jalb qilish va ushlab qolish dasturi doirasida amalga oshiriladi; yaxshi ishlab chiqilgan marketing tadqiqotlari elementlarini qo‘llash, faoliyat yo‘nalishlarining strukturasi: bozorning ma’lum bir sektorini tanlash va mavjud mahsulotlar va xizmatlarni maqsadli ravishda ilgari surish); demping konsepsiysi (banklar ma’lum bir mahsulotni mijozga jozibali narx shartlari bilan taqdim etib, bozorni qamrab olishga urinishadi); innovatsion konsepsiya (yangi mijozlar bilan turli xil muloqot metodlarini qo‘llash, ularning talablarini aniqlash va shu asosda boshqa bank mahsulotlarini taklif etish, shu tarzda mijozlarni ushlab qolish mexanizmlarini yaratish).

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar⁸

Ko‘rsatiladigan xizmatlar	Izoh
Kreditlash	<ul style="list-style-type: none"> - Qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar. - Overdraftlar va kredit liniyalari. - Aktivlar bilan ta’minlangan moliyalashtirish.
Hisob-kitob va kassa xizmati	<ul style="list-style-type: none"> - Joriy hisobvaraqlarni ochish; - To‘lovlar va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish; - Ekvayring xizmatlari.
Investitsiya xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> - Investitsiyalar bo‘yicha maslahat; - Aktivlar va portfeli boshqarish; - Obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish.
Moliyaviy maslahat	<ul style="list-style-type: none"> - Biznesni baholash; - Strategik rejalashtirish. - Soliq yukini optimallashtirish.
Lizing	<ul style="list-style-type: none"> - Uskunalar, transport vositalari va ko‘chmas mulkni moliyaviy lizing.
Valyuta operatsiyalari	<ul style="list-style-type: none"> - Joriy kurs bo‘yicha valyuta ayirboshlash. - Valyuta nazorati va derivativlar bilan operatsiyalar.
Xalqaro savdo xizmatlari	<ul style="list-style-type: none"> - Akkreditivlar, kafolatlar, yig‘ish. - Eksport-import operatsiyalari bo‘yicha maslahatlar.
Korporativ kartalar	<ul style="list-style-type: none"> - Xodimlarning xarajatlarini boshqarish uchun korporativ kredit kartalarini berish.
Kastodial xizmatlar	<ul style="list-style-type: none"> - Mijoz nomidan qimmatli qog‘ozlarni saqlash va boshqarish.
Xatarlarni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> - Valyuta va foiz xatarlarini himoya qilish. - Biznes xavfini sug‘urtalash.

⁷ Назаров М. Совершенствование стратегии развития банковских услуг для корпоративных клиентов / О. Г. Лебединская // Инфраструктурные отрасли экономики: проблемы и перспективы развития. – 2015. – № 4. – С. 19-26.

⁸ Muallif ishlanmasi

Korporativ mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish va rivojlantirish bo'yicha banklar o'rtasida innovatsion yondashuvlar qiziqish uyg'otmoqda. Ammo bu yondashuvni amalga oshirish juda murakkab: bozorga chiqish vaqtini aniq hisoblash, xizmatlarni kuchli reklama kampaniyasi bilan qo'llab-quvvatlash, bundan tashqari, ko'plab hollarda bunday yondashuv faqat qisqa muddatli mijozlar oqimini ta'minlaydi, keyin esa uning samaradorligi pasayadi.

Umuman olganda, kelgusi yillarda g'arbiy Evropa va Amerika banklarida korporativ mijozlarga bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari bank sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarning quyidagi uchta omiliga asoslanadi:

- 1) sohaga kirish;
- 2) balansdan tashqari xizmatlar ko'rsatish orqali bank faoliyatini diversifikatsiya qilish;
- 3) kredit kapitali bozorida xizmatlarni rivojlantirish.

Korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish har bir mijozga biznes va sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni talab qiladi.

Korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish jihatlarini AQSh banklari amaliyotidan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklariga joriy etish bir necha muhim yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, AQSh banklari o'zlarining korporativ mijozlarining ehtiyojlarini tushunish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan faol foydalanmoqdalar. CRM (mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish) tizimlarining joriy etilishi O'zbekiston banklariga biznes mijozlarining talablarini aniqroq baholash va qondirish imkonini beradi.

Italiya banklarining korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarini mamlakatimiz banklari faoliyatiga joriy etish O'zbekistonda korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bu bozor ehtiyojlarini o'rganish, texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni o'qitish va mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishga kompleks yondashuvni talab qiladi. Shunday qilib, O'zbekiston tijorat banklari nafaqat raqobatbardoshligini oshirishi, balki mijozlarning korporativ segmentiga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish asosida barqaror biznes modelini yaratishiga zamin yaratadi.

Xitoynda "Industrial and Commercial Bank of China Ltd., 6,303 trillion dollarlik aktivlari bilan dunyodagi eng yirik bank sifatidagi o'rmini saqlab qolgan, chunki Xitoy megabanklari birinchi to'rtta o'rinni egallagan. Agricultural Bank of China Ltd. kompaniyasi China Construction Bank Corp.ni ortda qoldirib, ikkinchi o'rinni egallagan, bu o'tgan yilga nisbatan birinchi olti o'rindagi yagona o'zgarish hisoblanadi. Xitoy qishloq xo'jaligi banki kuchli qishloq xo'jaligi sektorini barpo etish bo'yicha milliy strategiya tufayli 2023-yilda kreditlar hajmining 14,5 foizga o'sishiga erishgan. Xitoy Qurilish Bankining kredit o'sishi 12,6 foizni tashkil etgan. Moliyaviy tartibga solish milliy boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, mulk sektoridagi pasayishga qaramay, Xitoyning umumiy bank aktivlari 2023-yilga nisbatan 9,6 foizdan 11,1 foizgacha o'sgan"⁹.

Dissertatsiyaning "**Banklarda korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlari tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat

⁹ <https://www.spglobal.com/market-intelligence/en/news-insights/research/the-worlds-largest-banks-by-assets-2024>

banklarida korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish tartibi, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati tahlili, tijorat banklarda korporativ mijozlarga ximat ko'rsatish natijalari tahlil qilinib tegishli xulosalar keltirilgan.

Tijorat banklarida mijozlar amalga oshiradigan faoliyat turlariga qarab segmentlarga bo'lib o'rganadi. Avvalo tadqiqot ishimizni yanada chuqur tahlil etish maqsadida birinchi korporativ mijozlar so'zini oydinlik kiritib olishimiz kerak bu tushuncha har bir bankda alohida tarzda qabul qilinadi. Biz tadqiqot ishimizning obyektlaridan biri bo'lgan "Turon bank" ATBda qanday turdag'i mijozlarga nisbatan ishlatilishini ko'rib chiqamiz. Korporativ mijoz bu - oxirgi moliyaviy hisobot yili mobaynida "Turonbank" ATB tizimidagi hisobvaraqlariga (asosiy va ikkilamchi) kelib tushgan pul mablag'lari miqdori 115 mlrd. so'm va undan ortiq (kredit qoldig'i summasi 115 mlrd. so'm va undan ortiq) bo'lgan bank mijozlari yoki o'zaro aloqador mijozlar guruhi hisoblanadi. Yangi jalb qilingan mijozlar uchun boshqa banklarda amalga oshirilgan pul tushumlari ham inobatga olinishi mumkin. Bank Boshqaruvining qarori asosida yuqoridagi mezon talabiga javob bermaydigan istiqbolli mijoz yoki mijozlar guruhi istisno tariqasida korporativ mijoz sifatida tasniflanishi mumkin. Shuningdek, yana bir tartib borki oxirgi olti oy mobaynida asosiy faoliyatidan pul tushumlari amalga oshirmagan va bankrot deb e'lon qilingan mijoz yoki mijozlar guruhi korporativ mijoz tasnifidan chiqarilishi belgilab qo'yilgan.

Har bir bankda yuqoridagi bo'limlar ochilgandan so'ng korporativ mijozlar bilan ishlash yo'lga qo'yiladi. Eng avvalo shartnoma rasmiylashtiriladi. Banklar o'z mijozlariga milly valyuta so'm va xorijiy valyutada turli to'lovlar hamda pul o'tkazmalari bo'yicha sifatli hisob-kitob kassa xizmatlarini ko'rsatadi. Bankda hisob raqamga ega bo'lgan kompaniyalar, korxonalar va yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatli va tezkor xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Hisob-kassa xizmati bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar quyidagilardan iborat:

Hisob raqam ochish va uni yuritish;
Naqd pul va naqd pulsiz hisob kitoblarni amalga oshirish;
Konversion amaliyotlar;
"Internet Banking" va "SMS banking" orqali hisobni boshqarish;
Savdo terminallari va inkassatsiya;
Chet el valyutasida operatsiyalar;
Hujjatli operatsiyalar;
Boshqa xizmatlar.

Tadqiqot ishimizda "Turonbank" ATBning korporativ mijozlariga biz tomonimizdan taklif etilgan yangiliklar sifatida quyidagi bank mahsulotlarini keltirishmiz mumkin. Ushbu taklif etilayotgan bank mahsulotining maqsadi bo'lib korporativ mijozlarning boshqa raqobatchi banklarda amalga oshirayotgan amaliyotlari oqimini "Turonbank" ATBga jalb etish va korporativ biznes yo'nalishining daromadlarini oshirishdan iborat.

Mijoz uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

1) Korporativ mijozlarning "Turonbank" ATB tizimida to'lov amaliyotlarini bepul amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;

2) Ushbu paketlar shartlari doirasida bepul debet aylanmani amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;

3) Milliy valyutani xorijiy valyutaga xorijiy valyutani milliy valyutaga maqbul kurslarda konvertatsiya qilish imkoniyati mavjudligi.

3-jadval

“Turonbank” AT tomonidan korporativ mijozlar uchun “Corporativ silver” bank mahsuloti¹⁰

“Corporativ Silver” paketi	<p>- <u>Paketning 1 oylik to‘lovi:</u> - 1 500 000 so‘m+QQS;</p> <p>-“Turonbank” ATB tizimidagi to‘lovlар bo‘yicha komission haq: "Turonbank" ATB tizimida to‘lov amaliyotlari quyidagi to‘lov amaliyotlaridan tashqari bepul:</p> <ul style="list-style-type: none"> - "Turonbank" tizimida jismoniy shaxslar plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlardan tashqari barcha to‘lovlar -0,1%; -Korporativ kartalariga mablag‘lar o‘tkazilishi uchun qo‘shimcha haq -0,4%; <p>-“Turonbank” ATB tizimidan tashqari mahalliy to‘lovlар bo‘yicha komission haq: bir oy davomida 1 500000000 so‘mga qadar bepul, oshgan summaga 0,1% komission haq;</p> <p>-Milliy valyutani xorijiy valyutaga xorijiy valyutani milliy valyutaga konvertatsiya qilish: Faqat “AQSH” dollaridagi konvertatsiya amaliyotlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursga nisbatan 0,15% spred qo‘llangan holda konvertatsiya amaliyotlari amalga oshiriladi.</p>
Mahsulotni ro‘yxatdan o‘tkazish / operatsiyani bajarish vaqtiga qo‘yiladigan talablar	<p>1) Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari va tanlangan paket shartlari qayd qilingan tarif shartlari bo‘yicha kelishuv mijoz va mijozga xizmat ko‘rsatuvchi “BXM” tomonidan imzolangan kundan e’tiboran mijoz paketga ulangan hisoblanadi.</p> <p>2) Paketga ularish kundan qa’ti nazar paket uchun oylik to‘lov joriy oy uchun to‘lig‘icha undiriladi. Kelgusi oylardagi paket uchun to‘lovlar esa xar oyning 1-ish kunida undiriladi. Paketdan foydalanishning eng kam muddati paket ulangan kundan etiboran 3 oy hisoblanadi.</p>
Mijozni aniqlash talablari	Paketdan foydalanuvchilar, hisobraqamlaridagi umumiylilik yillik aylanmalari 10 mln. “AQSH” dollari ekvivalentini tashkil etuvchi tashkilot va ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi korxonalar hamda ushbu shartlarga mos keladigan hisobraqamlarini boshqa bankdan “Turonbank”ka olib o‘tgan tashkilotlar hisoblanadi.
Mahsulotdan foydalanishdagi talabi	Paketga ulangan mijoz ushbu paketda taqdim etilayotgan xizmatlardan belgilangan limit va shartlar asosida foydalanadi. Belgilangan limit va shartlardan oshgan qismi hamda paket doirasida taqdim etilmagan bank xizmati turlari bo‘yicha komission haq, mijozning amaldagi tarifida belgilangan miqdorda undiriladi.
Mahsulot valyutasi	Milliy valyuta, va “AQSH” dollari.
Sotish paytida ishlatalishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xizmatlar va / yoki mahsulotlar	<p>a) depozitlar;</p> <p>b) plastik kartochkalar emissiyasi;</p> <p>d) xalqarov to‘lovlar;</p> <p>e) konvertatsiya va konversiya amaliyotlari;</p>

O‘z navbatida bank uchun afzalliklari ham mavjud:

- 1) Korporativ mijozlarga imtiyoz berish qisqaradi;
- 2) Korporativ mijozlar tomonidan “Turonbank” ATBda amalga oshiradigan pul aylanmalari oqimi ortadi;
- 3) Korporativ mijozlarning hisobraqamlaridagi o‘rtacha depozit qoldig‘larining o‘sishiga turtki bo‘ladi;
- 4) Korporativ mijozlar tomonidan olinadigan qo‘shimcha foizsiz daromadlar ko‘lami oshadi.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

4-jadval

“Turonbank” AT tomonidan korporativ mijozlar uchun “Corporativ Gold” bank mahsuloti¹¹

“Corporativ Gold” paketi	<p>- Paketning 1 oylik to‘lovi: - 3 000 000 so‘m+QOS;</p> <p>“Turonbank” ATB tizimidagi to‘lovlari bo‘yicha komission haq: "Turonbank" ATB tizimida to‘lov amaliyotlari quyidagi to‘lov amaliyotlaridan tashqari bepul:</p> <ul style="list-style-type: none"> - "Turonbank" tizimida jismoniy shaxslar plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlardan tashqari barcha to‘lovlar -0,1%; - Korporativ kartalariga mablag‘lar o‘tkazilishi uchun qo‘srimcha haq -0,4%; - “Turonbank” ATB tizimidan tashqari mahalliy to‘lovlari bo‘yicha komission haq: bir oy davomida 2 000 000 000 so‘mga qadar bepul, oshgan summaga 0,1% komission haq; - Milliy valyutani xorijiy valyutaga xorijiy valyutani milliy valyutaga konvertatsiya qilish: Faqat "AQSH" dollaridagi konvertatsiya amaliyotlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursga nisbatan 0.125% spred qo‘llangan holda konvertatsiya amaliyotlari amalga oshiriladi.
Mahsulotni ro‘yxatdan o‘tkazish / operatsiyani bajarish vaqtiga qo‘yiladigan talablar	<p>1) Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari va tanlangan paket shartlari qayd qilingan tarif shartlari bo‘yicha kelishuv mijoz va mijozga xizmat ko‘rsatuvchi "BXM" tomonidan imzolangan kundan e’tiboran mijoz paketga ulangan hisoblanadi.</p> <p>2) Paketga ularish kundan qa’ti nazar paket uchun oylik to‘lov joriy oy uchun to‘lig‘icha undiriladi. Kelgusi oyillardagi paket uchun to‘lovlari esa xar oyning 1-ish kunida undiriladi. Paketdan foydalanishning eng kam muddati paket ulangan kundan etiboran 3 oy hisoblanadi.</p>
Mijozni aniqlash talablari	<p>Paketdan foydalanuvchilar, hisobraqamlaridagi umumiy yillik aylanmalari 10 mln. "AQSH" dollari ekvivalentini tashkil etuvchi tashkilot va ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi korxonalar hamda ushbu shartlarga mos keladigan hisobraqamlarini boshqa bankdan "Turonbank"ka olib o‘tgan tashkilotlar hisoblanadi.</p>
Mahsulotdan foydalanishdagি talabi	<p>Paketga ulangan mijoz ushbu paketda taqdim etilayotgan xizmatlardan belgilangan limit va shartlar asosida foydalanadi. Belgilangan limit va shartlardan oshgan qismi hamda paket doirasida taqdim etilmagan bank xizmati turlari bo‘yicha komission haq, mijozning amalidagi tarifida belgilangan miqdorda undiriladi.</p>
Mahsulot valyutasi	<p>Milliy valyuta, va "AQSH" dollari.</p>
Sotish paytida ishlatalishi mumkin bo‘lgan qo‘srimcha xizmatlar va / yoki mahsulotlar	<p>a) depozitlar;</p> <p>b) plastik kartochkalar emissiyasi;</p> <p>c) xalqarov to‘lovlari;</p> <p>e) konvertatsiya va konversiya amaliyotlari;</p>

Har bir bank yangi mahsulotining kelgusida yuzaga kelish xatarlari mavjud:

- a) Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha talablarning o‘zgarishi;
- b) Xorijiy valyuta kursining keskin o‘zgarishi;
- c) Paket kutilgan natija bermasligi.

Bank mahsuloti bo‘yicha mavjud xatarlar bartaraf etish yuzasidan ko‘riladigan choralar:

- a) Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha talablari o‘zgargan taqdirda paket shartlariga tegishlicha o‘zgartirish kritish;
- b) Xorijiy valyuta kursining keskin o‘zgarib valyuta xatarlari yuzaga kelganda, paket shartlari qayta ko‘rib chiqiladi;
- c) Paket kutilgan natija bermagan taqdirda tegishli bandlarga o‘zgartirish kritiladi.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

5-jadval

“Turonbank” AT tomonidan korporativ mijozlar uchun “Corporativ Platinum” bank mahsuloti¹²

“Corporativ Platinum” paketi	<ul style="list-style-type: none"> - Paketning 1 oylik to‘lovi: 6 000 000 so‘m+QQS; - “Turonbank” ATB tizimidagi to‘lovlар bo‘yicha komission xaq: “Turonbank” ATB tizimida to‘lov amaliyotlari quyidagi to‘lov amaliyotlaridan tashqari bepul: <ul style="list-style-type: none"> - “Turonbank” tizimida jismoniy shaxslar plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlardan tashqari barcha to‘lovlar -0,1%; - Korporativ kartalariga mablag‘lar o‘tkazilishi uchun qo‘srimcha haq -0,4%; - “Turonbank” ATB tizimidan tashqari mahalliy to‘lovlар bo‘yicha komission haq: bir oy davomida 2 500 000 000 so‘mga qadar bepul, oshgan summaga 0,1% komission haq; - Milliy valyutani xorijiy valyutaga xorijiy valyutani milliy valyutaga konvertatsiya qilish: Faqat “AQSH” dollaridagi konvertatsiya amaliyotlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursga nisbatan 0.10% spred qo‘llangan holda konvertatsiya amaliyotlari amalgalashiladi.
Mahsulotni ro‘yxatdan o‘tkazish / operatsiyani bajarish vaqtiga qo‘yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> 1) Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari va tanlangan paket shartlari qayd qilingan tarif shartlari bo‘yicha kelishuv mijoz va mijozga xizmat ko‘rsatuvchi “BXM” tomonidan imzolangan kundan e’tiboran mijoz paketga ulangan hisoblanadi. 2) Paketga ulanish kundan qa’ti nazar paket uchun oylik to‘lov joriy oy uchun to‘lig‘icha undiriladi. Kelgusi oylardagi paket uchun to‘lovlar esa xar oyning 1-ish kunida undiriladi. Paketdan foydalanishning eng kam muddati paket ulangan kundan etiboran 3 oy hisoblanadi.
Mijozni aniqlash talablar	Paketdan foydalanuvchilar, hisobraqamlaridagi umumiy yillik aylanmalari 10 mln. “AQSH” dollari ekvivalentini tashkil etuvchi tashkilot va ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi korxonalar hamda ushbu shartlarga mos keladigan hisobraqamlarini boshqa bankdan “Turonbank”ka olib o‘tgan tashkilotlar hisoblanadi.
Mahsulotdan foydalanishdagi talabi	Paketga ulangan mijoz ushbu paketda taqdim etilayotgan xizmatlardan belgilangan limit va shartlar asosida foydalanadi. Belgilangan limit va shartlardan oshgan qismi hamda paket doirasida taqdim etilmagan bank xizmati turlari bo‘yicha komission haq, mijozning amaldagi tarifida belgilangan miqdorda undiriladi.
Mahsulot valyutasi	Milliy valyuta, va “AQSH” dollari.
Sotish paytida ishlatalishi mumkin bo‘lgan qo‘srimcha xizmatlar va / yoki mahsulotlar	<ul style="list-style-type: none"> a) depozitlar; b) plastik kartochkalar emissiyasi; d) xalqaroq to‘lovlar; e) konvertatsiya va konversiya amaliyotlari;

Amalga oshirilgan ishlar samarasi o‘laroq, korporativ mijozlarning 2023-yildagi pul aylanmalari “1805,60 mln. AQSH dollarni, kredit qarzdorliklari qoldig‘i 402,25 mln. AQSH dollarni (bank umumiy kreditlarining 41,73 foizi) va ulardan olingan foizsiz daromadlar 20,22 mld. so‘mni”¹³ tashkil etganligi ushbu turdagi mijozlar bank uchun katta ahamiyat qatilishi lozimligini ko‘rsatadi. Bank yoqoridagilarni inobatga olib kelgusida bank ushbu mijozlarga yangi bank mahsulotlarni taklif qilish orqali bankning foizsiz daromadlarini 2 baravar oshirishni rejalashtirilgan.

Tadqiqot ishimizda biz banklarning korporativ mijozlarga ko‘rsatayotgan bank xizmatlari va undan olayotgan bank daromadlari haqida to‘xtalib o‘tdik. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq bank sektorini isloh qilishga kirishdi, bu bilan davlat banklarini xususiylashtirishning strategik zarurati belgilandi.

¹² Muallif ishlanmasi.

¹³ Muallif hisob-kitoblari (www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida tayorlandi).

Mamlakatimizda IFC (Xalqaro moliya korporatsiyasi) bilan birgalikda yurtimizda mavjud banklarning yangi tashkiliy tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu tashkiliy tuzilmaga asosan ayrim banklarda 3 ta yangi tarkibiy bo‘linma tashkil etildi: Filial tarmoqlarini boshqarish departamenti, Operatsion departament, Davlat dasturlari bilan ishslash departamenti. Monitoring va nazorat departamenti (Middle office) 2 ta mustaqil departamentga – Anderrayting departamenti va Monitoring va nazorat departamentlariga, Korporativ biznes departamenti esa Kichik va o‘rta biznes departamenti hamda Korporativ biznes departamentlariga aylantirildi. Bunday bo‘limlarga ajratilishi mijozlar uchun sifatli xizmatlar ko‘rsatish imkonini beradi. Misol uchun o‘tgan yil davomida Kichik va o‘rta biznes hamda Korporativ biznesni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilib mijozlar uchun yangi bank xizmatlari va qulay tariflar ishlab chiqildi. Bunga parallel ravishda texnologik xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish va takomillashtirish ishlari olib boriladi.


Bank korporativ mijozlarga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko‘rsatish sohasida masofaviy xizmat ko‘rsatish texnologiyalarini rivojlantirishga va yuridik shaxslar uchun Internet-banking tizimiga yangi funksiyalarni qo‘sishga katta e’tibor qaratishda davom etmoqda. Bank kompaniyalar guruhining pul oqimlarini boshqarish va nazorat qilish sxemalarini o‘z mijozlariga qulayliklar yaratish maqsadida taklif qilmoqdi. Yuridik shaxslar mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida «Turon Business» ilovasi yordamida o‘z hisob raqamlari holatini kuzatish, turli maqomga ega bo‘lgan hujjatlar va to‘lov hujjatlarning arxivini ko‘rish hamda xorijiy valyutani sotish va sotib olish uchun ariza yuborish singari ko‘plab amaliyotlarni bajarishlari mumkin. Bank korporativ mijozlarga hisob-kitob va kassa xizmatlarini masofaviy ko‘rsatish texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida Internet-banking tizimiga elektron to‘lov talabnomalarini mijozlarni o‘zlarini yaratib, kreditorlariga qo‘yish imkonini berish to‘g‘risidagi taklif tadqiqotimiz davomida isbotlandi. Ushbu taklif bankning korporativ mijozlari soni ortishiga va ularning vaqtlarini unumli foydalanishiga ham shu bilan birga o‘zaro noto‘lovliklar muammolarini kamaytirishga xizmat qilgan qiladi.

Shu bilan birga, bank tomonidan hukumat kafolati asosida Xitoyning Eksport-import bankidan jalb qilingan 209,9 mln. AQSH dollari miqdoridagi kredit mablag‘lari eng yirik korporativ mijoz “O‘zbekgidroenergo” AJga yo‘naltirildi. Mazkur mablag‘lar O‘zbekgidroenergo tarkibidagi 14 ta GESni modernizatsiya qilish, yangi kichik GESlarni qurish uchun to‘liq o‘zlashtirildi. Bundan tashqari hukumat kafolati asosida Rossiyaning “Xalqaro Loyihalari Taraqqiyoti (MPR)” jamiyatidan jalb qilingan 148,28 mln. yevro miqdoridagi kredit mablag‘lari hisobidan 5 ta GESlarni modernizatsiya qilish, yangi kichik GESlarni qurish maqsadlari uchun 59,83 mln. yevro, ya’ni loyihaning 40,35 foiz kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. Bankning iqtisodiyotning energetika, ishlab chiqarish, savdo va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini moliyalashtirish bo‘yicha qator yirik loyihalar amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. AT “Turon bank”da segmentlar bo‘yicha kredit portfeli joriy va prognoz ko‘rsatkichlar dinamikasi¹⁴ (mlrd. so‘m)

1-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, AT “Turon bank”da segmentlar bo‘yicha kredit portfeli joriy va prognoz ko‘rsatkichlar dinamikasi 2027-yilgacha o‘sish prognozlari keltirilga. Bizning tadqiqotimiz doirasida muhim bo‘gan ko‘rsatkich korporativ mijozlarni kreditlash holariga e’tibor bersak quyidagicha, ya’ni 2021-yilda jami bank kredit portfelida 40 foizni tashkil etgan bo‘lsa yillar mobaynida o‘sish ko‘rsatkichini nomoyon etib, 2027-yilda 51 foizga eytishi prognoz qilingan.



2-rasm. ATB “Turon bank”da segmentlar bo‘yicha ko‘rilayotgan sof foyda joriy va prognoz ko‘rsatkichlar dinamikasi¹⁵ (mlrd. so‘m)

2-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, AT “Turon bank”da segmentlar bo‘yicha ko‘rilayotgan sof foyda joriy va prognoz ko‘rsatkichlar dinamikasi tahlil qilingan. Unga ko‘ra 2022-yilda 52,9 mlrd. so‘m daromad olgan bo‘lsa uning asosiy qismi korporativ mijozlardan olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bank 2027-yilga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlarida o‘z daromadini 380,2 mlrd. so‘mga yetkazishni maqsad qilgan.

¹⁴ Muallif hisob-kitoblari (www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida taylorlandi).

¹⁵ Muallif hisob-kitoblari (www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida taylorlandi).

6-jadval

“Turon bank” ATBda korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar va ulardan olinayotgan daromadlar

dinamikasi¹⁶

№	Xizmat ko‘rsatilayotgan korxonalarini soni	<u>Amalga oshirilgan aylanma (AQSh dollarari EKV)</u>			<u>Kredit qarzdorliklari goldig‘i (AQSh dollarari EKV)</u>			Taqdim etilgan bank kafolatlari		Jami bank kafolatidagi ulushi	<u>Olingan foizsiz daromadlar (mln. so‘m)</u>			Olingan foizli daromadlar (mln. so‘m)	Hisob raqamdagagi kunlik o‘rtacha qoldiq (AQSh dollarari EKV)
		2023 yilning 9 oyida (339 ta mijoz)	2024 yil 9 oyida	ulushi %	01.10.2023 holatiga	01.10.2024 holatiga	ulushi %	summasi	soni		2023 yil 9 oyida	2024 yil 9 oyida	ulushi %	2024 yil 9 oyida	
	416	1720318586,5	1903463075,9	11%	388238633,1	432594667,5	45,47%	23995934	27	61,25%	10874,4	23166,7	113,04%	186138,3	18313 085,9

Korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishda olingan foizli daromadlar 2024-yil 9 oyi yakiniga ko‘ra jami 186138,3 mln. so‘mni tashkil etganligi.

Agar Hisob raqamdagagi kunlik o‘rtacha qoldig‘i 18313085,9 AQSh dollarini tashkil etganligi bank daromadlarini oshirishi bilan izohlanadi.

6-jadvalda qayd etilishicha bankning jami korporativ mijozlari soni 416 tani tashkil etadi. Amalga oshirilgan aylanma bank tomonidan 2023-yilning 9 oyida 339 ta mijozga 1720318586,5 AQSh dollarari miqdorida xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2024-yil 9 oyida 1903463075,9 AQSh dollarari miqdorida xizmatlar ko‘rsatilgan 18314448942 AQSh dollariga ortgan.

¹⁶ Muallif hisob-kitoblari (www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida tayorlandi).

Kredit qarzdorliklari qoldig‘iga e’tibor bersak, 2023-yil 1-oktabr holatiga jami 388238633,1 AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2024-yil 1-oktaybr holatiga 44356034,4 AQSh dollariga ortib 432594667,5 AQSh dollarini tashkil etgan.

Korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishda olingan foizsiz daromadlar 2023-yil 9 oyi davomida 10874,4 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2024-yil 9 oyi yakiniga ko‘ra jami 12 292,3 mln. so‘mga ortib 23166,7 mln. so‘mni tashkil etganligi. Ushbu soha bank uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Bankda korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish maqsadida ular takomillashtirilib borilmoqda. Korporativ mijozlar uchun xizmatlar va jarayonlarni takomillashtirish hamda bank xizmatlari sifatini oshirish maqsadida “Bill-discounting” bank maxsulotini ishlab chiqilganligi. Ushbu faktoring mahsuloti, bankning korporativ mijozining hamkoriga yoki hamkor tomonidan ushbu korporativ mijozga yetkazib berilgan va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha aksetplangan, lekin to‘lanmagan to‘lovni (qarzni), regres huquqi bilan bank tomonidan diskont evaziga moliyalashtirishni ifodalaydi. Mahsulot maqsadi bo‘lib debtor qarzdorliklarini sotib olish.

Bank mahsulotining mijoz uchun afzalliklari:

qisqa muddatli aylanma mablag‘larga ega bo‘ladi;

debitorlik qarzdorlikni undirish imkoniyati yoki qisqa muddatli aylanma mablag‘ga ega bo‘lishi;

mahsulot sotish hajmini oshishi va korporativ mijozlarning pul oqimlarining tezlashishi.

Bank uchun afzalliklari:

bank mahsulotlari katalogining kengayishi;

korporativ mijozlarning pul oqimlari hajmining oshishi;

bankka qo‘shimcha yangi mijozlarni jalg qilish imkoniyati;

korporativ mijozlardan ko‘riladigan daromadlarning o‘sishi;

joriy hisob raqamlardagi o‘rtacha qoldiq miqdorining oshishi.

Umumiy xizmat ko‘rsatish shartlari

Ushbu faktoring mahsuloti asosiy hisob raqami “Turonbank”da ochilgan korporativ mijozlarga taqdim etiladi. Bunda, faktoring summasi mijozning asosiy hisob-raqamiga naqd pulsiz ko‘rinishda diskont summasi chegirilib o‘tkazib beriladi.

Faktoring diskont stavkasi faktoring muddatidan kelib chiqib 8-bandda ko‘rsatilgan miqdorda belgilanadi.

Faktoring ajratishda talab etiladigan hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. Faktoring hizmatidan foydalanish bo‘yicha ariza;

2. Korxonaning ta’sis hujjatlarining tasdiqlangan nusxalari (guvohnoma, nizom, ta’sis shartnomasi);

3. Korxona ma’sul rahbari va bosh buxgalteri tayinlanishi yuzasidan ta’sischilarning bayonnomasi yoki qarori;

4. Korxona ma’sul rahbari va bosh buxgalteri (agarda ushbu lavozim ko‘zda tutilgan bo‘lsa) tayinlanishi yuzasidan buyrug‘i;

5. Korxona ma’sul rahbari va bosh buxgalteri (agarda ushbu lavozim ko‘zda

tutilgan bo‘lsa) shaxsini tasdiqlovchi hujjatning aslidan nusxa;

6. Faktoring hizmatidan foydalanish yuzasidan korxona ta’sischilarining qarori yoki bayoni;

7. Oxirgi hisobot davri uchun Davlat soliq idoralariga topshirilgan moliyaviy hisobotlari (1-son shakl: buxgalteriya balansi, 2-son shakl: moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzasidan hamda asosiy vositalar yuzasidan yoyilma (rasshifrovka), zaruriyatga ko‘ra tezkor (operativ) moliyaviy ma’lumotlarini (1,2-son shakllar) hamda 90 kundan oshgan qarzdorliklarning taqqoslash dalolatnomasi;

8. Ko‘rsatiladigan faoliyat turi bo‘yicha litsenziy (agarda faoliyat turi litsenziyalandigan bolsa);

9. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorlik yo‘qligi bo‘yicha DSİ dan ma’lumotnomasi;

10. Belgilangan tartibda tuzilgan oldi-sotdi, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi, shuningdek yetkazib berilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarning qabul qilinganligi yuzasidan tuzilgan hisob-fakturalarning aslidan (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalarning ko‘chirma nusxalari, ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va hokazo) nusxa. Shuningdek yuzaga kelgan debitorlik qarzdorlik yuzasidan tuzulgan solishtirma dalolatnomasi aslidan nusxa.

11. To‘lovchining yetkazib berilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha tuzilgan shartnoma yuzasidan mavjud debitorlik qarzdorlikni tan olinganligi yuzasidan akseptlangan talabnoma asli (Xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan va to‘lov uchun qabul qilingan to‘lov talabnomasining asli yoki elektron tartibda qo‘yilgan talabnomaning elektron nushasi), yoki qarzdor tomonidan ushbu qarzdorlikni tan olinganligi yuzasidan yozma xatining asli.

12. Agar faktoring xizmatidan foydalanuvchi korxonaning boshqa kredit tashkilot (bank)larida hisob-raqam va majburiyatlari mavjud bo‘lsa, ushbu kredit tashkiloti (bank)dan ma’lumotnomasi (mijozning hisobvaraqlardagi oxirgi 6 oylik aylanmasi, kredit tashkiloti (bank) oldidagi ssuda va boshqa qarzdorliklari, Kartoteka - qarzdorligi va pul qoldiqlari haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi) va aylanmalardan ko‘chirmalar ilova qilinadi;

13. Kredit siyosati va faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom va boshqa normativ hujjatlar talablaridan kelib chiqib qo‘sishimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin;

Bank tomonidan mijozga qo‘yilgan talablar mavjuddir. Ushbu mahsulotdan foydalanuvchi korporativ mijozlar quyidagi talablarning barchasiga mos kelishi lozim:

korporativ mijoz toifasiga mansub bo‘lishi;

asosiy hisob raqami “Turonbank” ATB da bo‘lishi;

hisob raqamdagagi pul aylanmalari oqimini doimiy amalga oshirib kelayotgan aktiv mijoz bo‘lishi;

faktoring amaliyoti ishtirokchilari (korporativ mijoz va uning hamkori) o‘rtasida tuzilgan va to‘liq qoplangan hisob-fakturalarining soni kamida 3 ta bo‘lishi.

7-jadvali

“Turonbank” ATB tomonidan Korporativ mijozlar uchun “Bill-Discounting” nomli faktoring mahsuloti¹⁷

Xizmati haqi (diskont)	30 kunga qadar bo‘lgan faktoring uchun - 2,33 %; 31 dan 60 kunga qadar bo‘lgan faktoring uchun - 4,66 %; 61 dan 90 kunga qadar bo‘lgan faktoring uchun - 7 %.
Faktoring summasi	10 000 000 000 (o‘n milliard) so‘mgacha.
Amal qilish muddati	30 kundan 90 kunga qadar.
Mijoz o‘z mablag‘i bilan ishtirok etishi	Talab etilmaydi.
Faktoring qarzini qaytarish muddati	Debitorlik qarzdorlk yuzaga kelgan kun hisobga olingan holda maksimum 90 kun.
Garov ta’minoti	<p>1. Faktoring shartnomasi summasining 125%ga qarzning qaytmaslik to‘g‘risidagi sug‘urta polisi.</p> <p>2. Ta’minot siyosatiga muvofiq boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk.</p> <p>3. Garov ta’minoti yoki sug‘urta polisi taqdim etilmasa faktoring xizmati uchun belgilangan xizmat haqi (<i>diskont</i>) stavkasi 2% oshirilgan qiymatda hisoblanadi.</p> <p><i>Eslatma: Bunda bank tomonidan garovsiz taqdim qilingan faktoringlar portfeli, bank hisobidan sug‘urtalanadi.</i></p>
Foizlarni hisoblash usuli	Diskont.
Mahsulotni ro‘yxatdan o‘tkazish / operatsiyani bajarish vaqtiga qo‘yiladigan talablar	5 bank ish kuni.
Moliyalashtirish manbasi	Bankning qisqa muddatli jalb qilingan mablag‘lari hisobidan.
Mijozlar toifasi	Stop-faktorlarga javob beradigan korporativ mijozlar.
Mahsulotdan foydalanishdagi talabi	Ushbu mahsulotdan foydalanuvchi korporativ mijoz, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lishi, hisob raqamida kartoteka 2 qarzdorligi bo‘lmasligi, shuningdek hozirda mavjud kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan asosiy va muddati o‘tgan foiz qarzdorliklari bo‘lmasligi lozim.
Mahsulot valyutasi	Milliy valyuta.
Sotish paytida ishlatilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xizmatlar va / yoki mahsulotlar	Ushbu mahsulotni sotish jarayonida korporativ mijozning hamkor bo‘lgan yuridik shaxslarni bankka jalb etib qo‘shimcha korporativ sotuvlar amalga oshirilishi mumkin.
Xatarlar va ularning ruxsat etilgan mezonlari	
Mahsulot bo‘yicha mavjud xatarlar:	Mahsulot bo‘yicha NPL maksimal chegarasi – 3 foiz.
Kerakli hujjatlar:	
1) Mahsulot bo‘yicha qaror qabul qilish uchun	Hujjat shakli
	Bank mahsulotlari qo‘mitasi
2) Bank mahsuloti pasportiga ilovalar ro‘yxati	
- Ariza namunasi;	
- Faktoring shartnomasi namunasi.	

Mahsulot bo‘yicha mavjud xatarlar bartaraf etish yuzasidan ko‘riladigan choralar:

Faktoring amaliyotini vaqtinchalik cheklash;

Faktoring muammoga aylanib mijozda likvidlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelgan holatda, undiruv garovga qaratiladi;

Ta’motsiz faktoring portfelini sug‘urtlash.

Ajratilgan faktoringlarni chuqur tahlil qilinib, ularni sog‘lomlashtirish hamda keyinchalik muammoga aylanmasligini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Ushbu mahsulotning joriy etilishi natijasida barcha korporativ mijozlar uchun pul aylanmasini oshirishga hamda debitorlik qarzlarini vaqtida bartaraf etishga bir

¹⁷ Muallif hisob-kitoblari (www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida tayorlandi).

imkoniyat berdi. Birgina 2024-yil yakinida korporativ mijozlar pul aylanmasida 15855,7 mlrd. so‘mni tashkil etayotganligi bank mahsulotning zaruriy ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari bankning yana bir turdag'i korporativ mijozlar faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida tadqiqotimiz davomida olingan ilmiy natijalar sifatida korporativ mijozlar tomonidan ishlab chiqarilgan transport vositalarini jismoniy shaxslarga sotishni rag‘batlantirish maqsadida “Buy-back” bank mahsulotini ishlab chiqdik va bu “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2023-2027-yillarda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olindi.

Ushbu bank mahsuloti mikrokredit o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga mototransport vositalarini sotish hamda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi Bosh bank bilan Bosh kelishuv imzolagan yuridik shaxslar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Ushbu turdag'i bank mahsulotini ishlab chiqishdan maqsadi “Turonbank” ATB mijoji bo‘lgan yuridik shaxslarning pul aylanmalarini oshirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida kross sotuvlarni, shuningdek aholini o‘zini o‘zi band qilib ish bilan ta’minlash

Mijoz uchun afzalliklar:

O‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar uchun istemol tovarlarini xaridini kredit mablag‘i hisobidan amalga oshirish;

Krediti hisobidan dastlabki biznesga birinchi qadam qo‘yish imkoniyati hamda muqobil ishga ega bo‘lish;

Yuridik shaxslarning mahsulotlari sotuvining hajmi oshishi va pul oqimlari aylanish tezlashishi;

Imtiyozli foizda kredit mablag‘idan foydalanish.

Bank uchun afzalliklar:

1) kredit mahsulotlari katalogini kengayishi;

2) yuridik shaxs maqomidagi mijozlarning bankdagi pul aylanmalari suratining oshishi;

2) yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyati;

3) Chakana va Korporativ biznes yo‘nalishi bo‘yicha bank daromadlarining oshishi.

Moliyalashtirish manbasi Yuridik shaxs bilan imzolangan Bosh kelishuvga asosan ushbu mahsulot doirasida bank mijozining depozit mablag‘lari hamda bank tomonidan muddatiga mutanosib ravishda jalb qilingan xorijiy valyutadagi depozitlar hisobidan.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida yana bir yangilik “Buy-Back” bank mahsulotini ishlab chiqdik.

Mijozga qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat:

1) Qarz oluvchi shartnoma tuzilish vaqtida 18 yoshdan va 60 yoshgacha bo‘lgan doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

2) Qarzdor kredit olish davrida joriy muddati o‘tgan kredit qarzdorliklari, qarzdor tomonidan avval olgan va so‘ndirilgan kreditlari bo‘yicha muddati 60 kundan kechikkan holati bo‘lmasligi lozim;

Mahsulotdan foydalanishdagi talabi ham mavjud bo‘lib u hamkor yuridik shaxslar uchun quyidagi talablarni qo‘yadi:

1) “Buy-back” kredit mahsuloti bo‘yicha hamkor yuridik shaxsning asosiy hisob-raqami “Turonbank” ATB da ochilgan bo‘lishi;

2) “Buy-back” kredit mahsuloti bo‘yicha hamkor yuridik shaxs bilan, kredit ajratish va ushbu kredit muammoga aylangan taqdirda kredit hisobidan sotib olingan mahsulotni qaytib sotib olish shartlari bayon etilgan bosh kelishuv imzolanadi (alohida shartlarda bank komissiyasi ham belgilanishi mumkin);

8-jadval

“Turonbank” ATB tomonidan o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga mototransport vositalarini sotib olish uchun “Buy-Back” nomli mikrokredit berish mahsuloti¹⁸

Maqsadli auditoriya (segmentlar):	O‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar;
Foiz stavkasi	Yillik 16 %;
Kredit summasi	60 000 000,0 so‘mgacha;
Amal qilish muddati	36 oy;
Boshlang‘ich badal	10%;
Imtiyozli davri	Mayjud emas.
Garov ta’minoti	1) Kredit evaziga sotib olinayotgan mototransport vositasi; 2) Sug‘urta polisi;
Foizlarni hisoblash usuli	Annuitet va differinsial;
Mahsulotni ro‘yxatdan o‘tkazish / operatsiyani bajarish vaqtiga qo‘yiladigan talablar	3 bank ish kuni;
11. Mijoz identifikatori talablari	Kredit front ofisi (CFO) ABS “CBS”;
Mijozni aniqlash talablari	KFO dasturida avtomatik skoringdan o‘tkazilgan holda;
Mahsulot valyutasi	Milliy valyuta;
1) Mahsulot bo‘yicha mayjud xatarlar: Mahsulot bo‘yicha NPL maksimal chegarasi – 3 foiz;	
2) Mahsulot bo‘yicha mayjud xatarlar bartaraf etish yuzasidan ko‘riladigan choralar: Kredit ajratish amaliyotini vaqtinchalik cheklash;	
2) Mahsulot bo‘yicha mayjud xatarlar bartaraf etish yuzasidan ko‘riladigan choralar: Kredit muammoga aylanib undiruv garovga qaratilgan taqdirda sotilgan tovar hamkor yuridik shaxs tomonidan qaytib sotib olinadi va kredit bo‘yicha qarzdorlik hamkor tomonidan qoplanadi; Ajratilgan kreditlar chuqur tahlil qilinib, ularni sog‘lomlashtirish hamda keyinchalik muammoga aylanmasligini oldini olish bo‘yicha chora-tadbir ishlab chiqish;	
3) Asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarz bo‘lsa: Muddati kechiktirilgan asosiy qarz miqdoriga kredit siyosatidan kelib chiqib oshirilgan foiz stavkasi qo‘llaniladi;	
Kerakli hujjatlar:	
1) Mahsulot bo‘yicha qaror qabul qilish uchun	Hujjat shakli
Bank mahsulotlari qo‘mitasi;	
2) Operatsiyani rasmiylashtirish uchun	Shartnoma shakli
	Yopiq;
3) Bank mahsuloti pasportiga ilovalar ro‘yxati - Ariza; - Kredit shartnomasi;	

Kredit ajratiladigan jismoniy shahslar uchun qo‘yiladigan talablar:

1) Bosh bank bilan Bosh kelishuv imzolagan yurdik shaxslardan shartnoma olib kelishi.

Ushbu bank mahsuloti tadqiqotimiz mahsuli bo‘lib uning qo‘llanilishi natijadasida korporativ mijozlar tomonidan ishlab chiqarilgan transport vositalarini sotish rag‘batlantirilib ularning daromadini ortishiga va mijozlar uchun transport vositalarini hech qanday muammolarsiz sotib olish imkoniyatini yaratdi.

¹⁸ Muallif hisob-kitoblari (www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida tayorlandi).

Dissertatsiyaning “**Korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari**” deb nomlangan uchinchi bobida korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirishdagi muammolar va ularning yechimlari, mamlakatimizda korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish imkoniyatlari keltirilgan.

Korporativ segmenti boyicha, korporativ banking e‘tiborini mijozning to‘liq hamyonini (aylanmasini) boyitishga, korporativ segment vositalaridan chakana, kichik va o‘rta bizneslarni moliyalashtirish mexanizmi sifatida foydalanishga qaratish. Korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy muammosi korporativ mijozlarning yetarli darajada xabardor emasligi, axborot texnologiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bo‘lib qolmoqda. Bank kredit mahsulotlarining rivojlanishini sekinlashtiradigan salbiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

iqtisodiy muammolar, bozorning axborot ochiqligini oshirish muammolari qo‘shimcha ofislarda qoniqarli xizmat ko‘rsatish sifati emas;

bank innovatsiyalari va ularni taqdim etish texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi muammolar;

iqtisodiyotni raqamlashtirishning rivojlanish darajasi yetarli emas.

9-jadval

Korporativ mijozlar uchun innovatsion bank xizmatlarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolar¹⁹

Muammolar	Izoh
Mijozlarning ehtiyojlarini tushunishning yetishmasligi	korporativ mijozlar yangi xizmatlarni ishlab chiqishda banklar tomonidan har doim ham hisobga olinmaydigan noyob va o‘ziga xos talablarga ega bo‘lishi mumkin.
Yangi texnologiyalarni integratsiyalashning murakkabligi	innovatsion yechimlarni amalga oshirish IT infratuzilmasida katta kuch talab qiladi, bu qimmat va vaqtini talab qiladigan jarayon bo‘lishi mumkin.
Tartibga solish cheklovlari	bank ko‘plab tartibga solish talablariga javob berishi kerak, bu esa yangi xizmatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.
Bozor raqobati	bank sektorining yuqori raqobatbardoshligi moliya institutlarini tezda moslashishga va noyob xizmatlarni taklif qilishga majbur qiladi, bu esa innovatsion jarayonlarga bosim o‘tkazadi.
Xavfsizlik xatarlari	innovatsion xizmatlar ko‘pincha kiber tahdidlar va ma’lumotlarning buzilishi kabi yangi xavflarni o‘z ichiga oladi, bu esa qo‘shimcha himoya choralarini talab qiladi.
Bozor muhitining o‘zgarishi	iqtisodiy sharoitlar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar yoki yangi texnologiyalar korporativ mijozlarning ehtiyojlarini tezda o‘zgartirishi mumkin.
Xodimlarni o‘qitish zarurati	yangi xizmatlarni joriy etish bank xodimlaridan yangi mahsulotlar va texnologiyalar bo‘yicha bilimlarni talab qiladi, bu esa o‘qitish uchun katta vaqt va resurslarni talab qilishi mumkin.
Yangi xizmatlarning samaradorligini baholash	innovatsiyalarning muvaffaqiyatini o‘lchash yoki uning biznes mijozlariga ta’sirini tushunish har doim ham oson emas.

Bugungi kunda nafaqat mijozlarga xizmat ko‘rsatishning mavjud muammolari nuqtai nazaridan, balki bunday munosabatlarning milly va xorijiy tajribalarini o‘rganish doirasida ko‘rib chiqilgan bir qator sabablarga ko‘ra iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorini yetarli darajada moliyalashtirishning global muammosiga duch keladi. Ushbu jarayonda tijorat banklari va korporativ mijozlar o‘rtasidagi zamonaviy munosabatlar bilan bog‘liq keng ko‘lamli muammolarni ko‘rib chiqish zarur, masalan: mijozlar korxonalarining noto‘g‘ri hisoboti; bank o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatish shartlarini to‘liq oshkor qilmasligi;

¹⁹ Muallif ishlanmasi

muzokaralar paytida tomonlarning tushunmovchiligi; bitim tuzishda mijoz tomonidan muhim ma'lumotlarni qasddan sukut saqlashi; yuqori foizlar; qaytarilmaslik; kapital etishmovchiligi va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda korporativ mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashning dolzarb muammosi moliyaviy holat koeffitsiyentlarining mezon qiymatlari tizimini ishlab chiqishdir, chunki sohaga mansubligi sababli ko'plab qiymatlar mavjud va ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlarning me'yoriy qiymatlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining tarmoq xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmaydi. Shuni ham ta'kidlaymizki, bank amaliyoti kreditga layoqatni baholash jarayonini uslubiy va axborot bilan ta'minlashning yetarli emasligi bilan ajralib turadi. Bank sektori mijozlarining katta auditoriyasiga ega bo'lishi ularga ushbu mijozlarni muayyan segmentlarga ajratish va ularning ehtiyojlarini qondiruvchi yechimlarni taklif qilish imkonini beradi. Barcha harakatlar bank mijozlariga moliyaviy xizmatlar bilan bir qatorda, ularning kundalik hayotidagi turli muammolarni hal qilishga yordam beradigan moliyaga yaqin bo'lgan xizmatlar to'plamini ham taklif qilishga qaratilgan bo'ladi. Quyidagi yo'nalishlar banklar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga, korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

1. Mijoz biznesining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual moliyaviy mahsulotlar va yechimlarni ishlab chiqish hamda korporativ mijozlarning ehtiyojlari va afzalliklarini tushunish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanish.

2. Xizmatlardan foydalanishni osonlashtirish uchun mobil va onlayn bank platformalarini joriy etish va jarayonlarni avtomatlashtirish, shu jumladan hisobot va ish oqimini yaratish.

3. Yangi texnologiyalarni (masalan, blokcheyn, sun'iy intellekt) bank xizmatlariga integratsiya qilish uchun FinTech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish hamda kraufdfunding yoki P2P kreditlash kabi yangi moliyalashtirish shakllarini taklif qilish.

4. Mijozlarga xizmat ko'rsatish va maslahat berish darajasini oshirish uchun bank xodimlarini o'qitish, shuningdek, mijozlarga qulaylik yaratish uchun ko'p kanalli aloqa tizimlarini yaratish (telefon, chat, elektron pochta).

5. Ekologik mas'uliyatli kompaniyalar uchun "yashil" moliyaviy mahsulotlarni taklif qilish va barqaror biznes - ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar bo'yicha maslahat berish.

6. Mijoz biznesining moliyaviy ko'rsatkichlari va xatarlarini tahlil qilish uchun vositalarni taqdim etishni yanada samarali rejalashtirish uchun bashoratli modellarni ishlab chiqish.

7. Zamonaviy xavfsizlik tizimlarini (ko'p faktorli autentifikatsiya, shifrlash) joriy etish orqali ma'lumotlarni himoya qilish darajasini oshirish hamda mijozning o'zgaruvchan biznes ehtiyojlariga qarab moslashuvchan kredit shartlarini ishlab chiqish.

8. Korporativ mijozlar oldida bankning obro'sini oshirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy javobgarlik amaliyotini (masalan, barqarorlikni qo'llab-quvvatlash) amalga oshirish. Mavjud mijozlarga biznes ehtiyojlarini asosida qo'shimcha xizmatlar taklif qilish uchun o'zaro savdo strategiyalarini ishlab chiqish. Taklif etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish uchun boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qilish (masalan, konsalting kompaniyalari bilan hamkorlik qilish).

9. Korporativ mijozlar xatarlarni minimallashtirish, 24/7 to'lovlar va ularni taqdim etishning tezkor xizmati, real vaqt rejimida xorijiy moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati va axborot ta'minotining murakkabligiga muhtoj.

XULOSA

Korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish zamonaviy moliya bozorida banklarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhit va mijozlarning ortib borayotgan talablar bilan banklar yangi texnologiyalarni faol ravishda joriy etishlari va o'z xizmatlarini korporativ sektorning ehtiyojlariga moslashtirishlari kerak.

1. O'zbekiston bank tizimida korporativ-yuridik mijozlar segmenti nafaqat tijorat banklari faoliyatining asosiy daromad manbalaridan biri, balki real sektor korxonalarini moliyalashtirish, qo'shimcha qiymat yaratish va iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning strategik omili hisoblanadi.

2. Bank mahsulotlari va xizmatlariga kirishni osonlashtirish uchun onlayn platformalar va mobil ilovalarni joriy etish, bu esa mijozlarga istalgan vaqtida va istalgan joyda moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi hamda har bir mijoz biznesining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga oladigan individual takliflarni yaratish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanish lozim.

3. Operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali ichki jarayonlarni optimallashtirish dasturlarni qayta ishlash vaqtini qisqartiradi va xizmat samaradorligini oshiradi, shuningdek, buxgalteriya dasturlari, CRM tizimlari va boshqa biznes yechimlari bilan integratsiyani o'z ichiga olgan moliyaviy xizmatlar ekotizimini ishlab chiqish zarur.

4. Kiberxavfsizlik va mijozlar ma'lumotlarini himoya qilishga alohida e'tibor berish, bu bankka bo'lgan ishonchning muhim jihatni bo'lib, unda xodimlarni yangi texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga o'rgatish va bank bilan ijobiy tajriba yaratish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish maqsadga muvofiq.

5. Bank innovatsiyalari korporativ mijozlarga bank xizmatlarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bank innovatsiyalarini rivojlantirish firibgarliklardan himoya qilish, raqobatni rivojlantirish, korporativ mijozlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda bankning mahsulot va xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Aytish kerakki, yangi bank mahsulot va xizmatlarini qabul qilish tezligi bo'yicha korporativ mijozlarning bir nechta guruhlari mavjud. Ba'zilar yangi mahsulotni bank bozoriga kiritilgandan so'ng darhol qabul qilishga tayyor, boshqalari esa o'z tanlovlari ko'proq konservativdir.

6. Tijorat banklarining korporativ mijozlariga xizmat ko'rsatishda bank innovatsiyalarining roli tahlil qilinib bank innovatsiyalarini takomillashtirish jarayoniga mamlakatimiz raqamli iqtisodiyotining rivojlanish darajasi ta'sir ko'rsatayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Bank innovatsiyalarining rivojlanishi bank bozorining yangi tashkiliy modellarini yaratishga, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishda bank texnologiyalarining sifati va mavjudligini oshirishga qodir bo'lishi zarur.

7. Korporativ mijozlarning likvidlik muammolarini kamaytiruvchi "Bill-discounting" mahsuloti debtorlik qarzlarini o'z vaqtida bartaraf etish, pul oqimini barqarorlashtirish hamda bankning komissiya daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratadi.

8. Dissertatsiya ishining natijalari asosida korporativ bank xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish, xizmatlarni to'liq raqamlashtirish, risklarni prognozlashning intellektual tizimlarini joriy etish, mijozlar segmentatsiyasiga asoslangan innovatsion mahsulotlarni yaratish banklar uchun strategik ustunlik berishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/30.12.2019.I.17.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

ТУЛАЕВ САФАРМУРОД БОЙМУХАММАД УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ
УСЛУГ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ КОРПОРАТИВНЫМ КЛИЕНТАМ**

08.00.07 – “Финансы, денежное обращение и кредит”

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована под номером B2024.2.PhD/Iqt4135 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале “Ziyouz” (www.ziyouz.uz).

Научный руководитель:

Рустамов Максуд Суванкулович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Джумаев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор

Обламурадов Нарзулла Наимович
доктор экономических наук, профессор.

Ведущая организация:

Банковско-финансовая академия
Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета Ташкентского государственного экономического университета под номером DSc.03/30.12.2019.I.17.01 от « » 2025 года в . (Адрес: 100000, г. Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34; факс: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер). Адрес: 100000, г. Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34. kutubxona@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан « » 2025 года.
(протокол реестра № от « » 2025 года).

Т.З. Тешабаев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ж.Х.Атаниязов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Н. Кузиев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике уделяется внимание развитию инновационных банковских услуг, предоставляемых банками корпоративным клиентам. Также важнейшим аспектом развития банковской системы для корпоративных клиентов является цифровизация экономики. В рамках этого процесса банки предоставляют корпоративным клиентам разнообразные новые банковские продукты и услуги. JPMorgan Chase & Co., один из ведущих коммерческих банков, работающих в различных регионах мира, «располагает активами более 35 трлн долларов США и выделил 2,8 трлн долларов США в виде кредитов частным и институциональным клиентам по всему миру в 2024 году. Банк способствует своевременной продаже товаров и услуг по всему миру, ежедневно переводя более 10 трлн долларов США средств корпоративных клиентов в более чем 120 валютах и более чем в 160 странах»²⁰. Тот факт, что услуги, предоставляемые корпоративным клиентам, способны обеспечить банку стабильный и растущий доход в любых экономических условиях, свидетельствует о важности развития этой отрасли для банковской системы и государства.

В мировой практике банки и международные организации, а также ведущие ученые в данной области проводят научные исследования, посвященные развитию, эволюции, современному состоянию, организационным проблемам и путям их устранения, повышению эффективности банковского обслуживания, предоставляемого коммерческими банками корпоративным клиентам. В частности, в международной практике особое внимание уделяется вопросам расширения спектра банковских продуктов и услуг, предоставляемых корпоративным клиентам, повышения их качества, оптимизации их реализации, корректной оценки факторов, на них влияющих, а также повышению рентабельности коммерческих банков по продуктам и услугам, предоставляемым корпоративным клиентам. В частности, исходя из стратегий и целей коммерческих банков в развитии данного направления, актуальными на сегодняшний день остаются такие вопросы, как оптимизация предоставления банковских услуг корпоративным клиентам, организация системы инновационных услуг, стандартизация услуг, расширение сферы цифровых банковских услуг.

В Узбекистане сегодня кардинально реформированы инновационные банковские продукты и услуги, предоставляемые коммерческими банками корпоративным клиентам, в частности, по сравнению с предыдущими годами рынок этих банковских услуг получил развитие, наблюдаются изменения в предоставлении универсальных банковских услуг. Однако, несмотря на это, сохраняются некоторые проблемы в практике совершенствования банковских услуг и их реализации. Среди них: ограниченная скорость рассмотрения заявок на кредиты и принятия решений о их выдаче,

²⁰ <https://www.jpmorganchase.com/ir/annual-report/2024/ar-ceo-letters>

отсутствие современных подходов к установлению отношений сотрудничества с корпоративными клиентами, низкий уровень безопасности, бесперебойности и надежности платежных систем по сравнению с развитыми странами и др. Перед коммерческими банками нашей республики поставлены задачи «изучения передового международного опыта банковской деятельности и внедрения новых видов банковских услуг и продуктов, разработки и продвижения инновационных продуктов для безналичных платежей, включая бесконтактные и мобильные технологии»²¹. Это, в свою очередь, показывает, что данная тема является одной из самых актуальных на сегодняшний день.

